

## SHE'RIYAT – RUHIYATKO'ZGUSI

MohinurFarmonova

*BuxDU IAI bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *Iqbol Mirzo yangi o'zbek adabiyotining yorqin namoyondalaridandir. Uning shoir sifatida so'z qo'llash mahorati, badiiy topilmalari, go'zal tasvir vositalari tahsinga sazovor. Ushbu maqolada Iqbol Mirzoning "Hilviroq kitob" she'ri ilmiy, g'oyaviy, badiiy jihatdan tahlilga tortilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Iqbol Mirzo, Hilviroq kitob, tahlil atamasi, epitet, tashbeh*

Badiiy adabiyot – inson ruhining ozuqalaridan, uning tarbiya vositalaridan biridir. Chin ma'nodagi badiiy asar go'yo xazina. Undan har kim har xil hissa ola biladi. Bu xazina dur-u gavharlarining asl qimmatini adabiyotshunoslik sohasining zargarlari baholaydilar. "Zar qadrini zargar biladi", – deydi dono xalqimiz. Ustozlarimiz tomonidan tahlil va talqin qilingan badiiy ijod namunalari ushbu fikrning isboti o'laroq namoyon bo'ladi.

Shu o'rinda tahlil atamasining izohiga to'xtalsak. "Adabiyotshunoslikda tahlil va talqin tushunchalari juda keng qo'llanilib, ular badiiy asarni tushunish jarayonining bir-biriga bog'liq jihatlaridir. Badiiy asarni tushunish, uning mazmun mohiyatini anglash jarayonida tahlil va talqin amallari har vaqt hozirdir. Tahlil atamasi odatda ilmda "analiz" deb yuritiladigan istilohning sinonimi sifatida tushuniladi. Analiz esa, ma'lumki, butunni anglash uchun uni qismlarga ajratishni, qismning butun tarkibidagi mohiyatini, uning boshqa qismlar bilan aloqasi va butunlikning yuzaga chiqishidagi o'rnini o'rganishni ko'zda tutadi. Ayrimlar badiiy asarni tirik organizmga qiyos etishadi-da, "uni qismlarga ajratish jonsiz tanaga aylantirishdan boshqa narsa emas" degan qarashga tayanib, tahlilga qarshi chiqadilar. Biroq bu xil qarash asossizdir. Zero, adabiyotshunoslikdagi tahlil ham — o'qish, faqat bunda badiiy asarni tadqiqotchi sifatida o'qish tushuniladi. Bu xil o'qish jarayonida tadqiqotchi badiiy asarni qismlarga ajratarkan, uning badiiyat hodisasi sifatidagi mavjudligini, undagi o'quvchi ongi va ruhiyatiga ta'sir qilayotgan, uning u yoki bu tarzda tushunilishiga asos bo'layotgan omillarni o'rganadi".

Tahlilning bir necha turlari mavjud. Asarni uning xususiyatlariga ko'ra turli jihatdan tahlil qilish mumkin. Xususan, she'riy asarlarni janr, vazn, qofiya, mavzu va g'oya, badiiy tasvir vositalari kabilarga ko'ra tahlil qilish mumkin.

Yuqorida aytilgan fikrlarni iste'dodli shoir Iqbol Mirzoning "Hilviroq kitob" nomli she'ri misolida tasdiqlashga harakat qilamiz.

Ushbu she'r azaliy va abadiy mavzulardan biri bo'lmish muhabbat mavzusida bitilgan. Aniqroq aytadigan bo'lsak, she'rda muhabbat va hijron, ma'shuqa vasliga yetolmagan oshiq his-tuyg'ulari kuylangan. Biroq bu hijron kishini juda og'ir qayg'uga solmaydigan, aksincha, unga yupanch beruvchi xulosaga olib

kelgan yoqimli hijron. Bu xulosa esa ikki oshiq qalbning visoli muhabbatning go'zal o'limi ekanligidir.

Asar har biri 4 misradan iborat 4 banddan tashkil topgan, umumiy hajmi 16 misra. Ijodkor o'ziga xos fikr va qarashlarni bayon qilish uchun har bir misrada go'zal ifoda vositalaridan foydalanadi.

Avvalo, sarlavhaga e'tibor qaratsak, "Hilviroq kitob"! "Hilviroq" so'zidan kitobning eski, uniqqan, ancha yillardan buyon o'qilmay yotgani ma'lum. Demak, shoir o'zining o'tgan umr daftarini varaqlar ekan, eski ammo og'riqli tuyg'ular qurshovida qoladi. Ana shu dard unga qalam tutqazdi, yaralarini yangiladi. She'ning ilk bandi ushbu jumlar bilan boshlanadi.

Hilviroq kitobni zarb bilan yopdim,  
Ko'hna bo'y urilib buzdi ko'nglimni.  
Xazon to'shagidan bir gavhar topdim:  
Visol – muhabbatning go'zal o'limi .

"Hilviroq" so'zining asosi hilviroq fe'lidir ("zaif, nimjon holga kelmoq, zaiflashmoq"). Avval aytganimizdek, muhabbat mavzusi azaliy va abadiy mavzulardan biri hisoblanadi. Demak, u haqidagi kitoblar hilviroq bo'lishi, undan ko'hna bo'y urilishi- tabiiy hol. Kurtakning bahor bilan uchrashuvi, daraxtning barg yoyishi, ya'nikim visolning bir ko'rinishi oqibatida vaqti yetib barglarning xazonga aylanishi go'zal xulosaning tasdig'idir.

Shoir ikkinchi bandda ham tabiat qonunlaridan go'zal badiiy tasvir paydo qiladi.

Bulutlar uchrashdi chaqmoqlar otib,  
Chaqmoq – sog'inchlarning oydin gulimi?  
Yomg'ir shivirladi to'kilayotib:  
Visol – muhabbatning go'zal o'limi.

Ma'lumki, bulutlar to'qnashuvidan chaqmoq hosil bo'ladi va ko'p hollarda chaqmoqdan so'ng yomg'ir yog'adi. Lirik qahramon, ya'ni shoir shu o'rinda chaqmoq sog'inchlarning oydin gulimi, degan savol qo'yadi. So'ng hatto yomg'ir ham: "Visol muhabbatning go'zal o'limi", – deya shivirlaydi. Sog'inch o'rtagan bulutlar visoli ularning yomg'ir bo'lib to'kilishi bilan yakunlanadi.

Har bir inson dunyoga kelib umr o'tkazar ekan, uning qalbi bir lahza bo'lsa-da, muhabbatga asir bo'ladi. Zero, odamzotning chin insoniyligini belgilaydigan tuyg'ulardan biri ishq-muhabbat sanaladi. Necha-necha shoir-u yozuvchilar qo'lga qalam tutqazgan ham shu – ishq. O'zbek shoirasi Nodirayi davron ta'kidlaganlaridek: "Muhabbatsiz kishi odam emasdur, Gar odamsan, muhabbat ixtiyor et". Ishqqa muhtalo oshiq-ma'shuqlar dil asrorini suvga so'zlash holatlari, daryolar-u toshlar bilan so'zlashish voqealari folklor ohanglarini yodga soladi. Bilamizki, xalq qo'shiqlarida visolga tashna oshiq-mashuqlar daryoning ikki qirg'og'ida, bir-biridan uzoqda, firoq-u g'am azobida tasvirlanadi. Ularning muhabbatiga shu suvlar-u toshlar guvoh. Dil izhorlar, aytilajak qo'shiqlar shohidi ular. She'ning uchinchi bandida shu an'anaga sodiq qolgan ijodkor daryo

qirg'og'idagi toshlar oshiqning sevgi o'lanlarin eshitib zerikkanligini, bu dardli o'lanlardan daryo ham o'zini to'rt tomonga tashlab: "Visol –muhabbatning go'zal o'limi", –deya ta'kidlayotganligini aytadi.

Daryo quchog'ida tosh qotgan toshlar,

Eshitib zerikkan sevgi o'lanin.

Daryo to'rt tomonga o'zini tashlar:

Visol – muhabbatning go'zal o'limi.

Bu dardli o'lanlardan daryo ham o'zini to'rt tomonga tashlab: "Visol – muhabbatning go'zal o'limi", –deya ta'kidlaydi.

Oxirgi badda lirik qahramon ma'shuqaga murojaat qilib, uni "yolg'izim" deb ataydi. Uning fikricha, taqdir oshiqning yo'lini to'sib, yor sari borishga imkon bermagani bu –siylov. Axir, visol – muhabbatning go'zal o'limi! Demakkim, ularning sevgisi bezavol yashaydi!

Har narsada yaxshilikni ko'rish –o'zbek xalqiga xos xususiyatlardan. "Nimaiki bo'lsa –yaxshilikka!" muqaddas dinimiz islomda ham har narsadan yaxshilik izlash kerakligi aytiladi. Shoir buning go'zal isbotini ko'rsatib bergan. Hatto oshiqning yor visoliga yeta olmasliklarida ham bir hikmat bor. Ushbu she'r ko'plab oshiq dillarga bir yupanch, malham bo'lgani aniq.

Ushbu she'rni vazn jihatidan tahlil qiladigan bo'lsak, uning barmoq she'riy tizimida  $6+5=11$  bo'g'inli soda vaznda yozilganiga guvoh bo'lamiz.

6 + 5 = 11

Hilviroq kitobni / zarb bilan yopdim, a

Ko'hna bo'y urilib / buzdi ko'nglimni. b

Xazon to'shagidan / bir gavhar topdim: a

Visol – muhabbatning / go'zal o'limi. b

Qofiyalanishi: a b a b, d b d b, e b e b, f b f b. birinchi bandning toq misralari alohida, juft misralari alohida qofiyalangan. Qolgan bandlarning toq misralari o'zaro erkin qofiyalangan holda, juft misralari 1-bandning juft misralari bilan o'zaro ohangdosh.

Toq misralardagi ohangdosh so'zlar: yopdim-topdim, otib-to'kilayotib, toshlar-tashlar, taqdir-axir; juft misralardagi qofiyadosh so'zlar: ko'nglimni-o'limi, gulimi, o'lanin, yo'limni.

She'rda 1-bandning 4-misrasi qolgan uchala bandning oxirida aynan takrorlanib kelgan. Bu takror, ayni vaqtda, ma'noni ta'kidlab kuchaytirishga xizmat qilgan.

Hajman u qadar katta bo'lmasa-da, asarda bir qancha badiiy-tasviriy vositalarni uchratishimiz mumkin. Avvalo, she'rdagi o'ziga xos sifatlarga nazar solsak. Hilviroq kitob, ko'hna bo'y, go'zal o'lim, sog'inchlarning oydin guli, tosh qotgan toshlar, borar yo'lim kabi ifodalar asarni nafaqat shaklan, balki mazmunan ham boyitgan. Chunki har bir go'zal ifoda badiiy mantiq jihatidan ham o'zini oqlaydi deb ayta olamiz.

Aytish mumkinki, asarda tushunarsiz, murakkab-u mavhum soʻz va jumlar uchramaydi. Sodda, tushunarli, xalq jonli tiliga yaqin tarzda bitilgan. Shu bilan birga har bir misrada badiiylik ufurib turibdi. Lirik qahramonning xazon toʻshagidan gavhar topishi, bulutlarning chaqmoq otib uchrashishi, daryoning oʻzini toʻrt tomonga tashlashi oʻquvchi koʻz oʻngida goʻzal manzaralarni yuzaga keltiruvchi badiiy obrazlardir.

Metaforaning oʻziga xos koʻrinishlari ham sheʼr badiiy qimmatini oshirgan: koʻhna boʻy urildi, koʻnglimni buzdi, xazon toʻshagi, daryo quchogʻi... Daryoning toʻrt tomonga oʻzini tashlashi, bulutlarning uchrashishi, toshlarning zerikishi, taqdirning oshiqlar yoʻlini toʻsishi kabilar tashxis sanʼatini, yomgʻirning shivirlashi intoq sanʼatini yuzaga keltirgan.

Sheʼrning kulminatsiya boʻlgan fikr – visol muhabbatning goʻzal oʻlimi ekanligi – lirik qahramon nazdida goʻyo gavhar. Yaʼni oshiq uchun taskin beruvchi bunday xulosaga kelish – bebaho gavhar topganday gap, haqiqatan.

Ushbu lirik asar juda goʻzal. Uning tahlilda yoritilmagan qirralari hali juda koʻp. I.Mirzo ijodida bunday betakror asarlar bisyor. Ularni oʻqib bir olam badiiy zavq, maʼnaviy oziq, ruhiy hordiq olish mumkin.

#### **FOYDALNILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. “Sharq”, Toshkent – 2007
2. D.Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018. – 457-bet.
3. D. Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lugʻati. T. – 2010